

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

**PST TIZIMI BO'YICHA XALQARO TALABNOMALARGA
QO'YILADIGAN TALABLAR**

Toshkent– 2024

Ixtirolarni xorijda muhofaza qilishni boshlash uchun birinchi majburiy shart oluvchi idoraga to‘g‘ri rasmiylashtirilgan xalqaro talabnomaning berilishi hisoblanadi.

PSTning barcha tartiblari aniq yo‘lga qo‘yilgan “mexanizm”dan iborat bo‘lganligi sababli PSTda xalqaro talabnomalar uchun qat’iy rasmiy talablar o‘rnatilganligi tabiiy holdir.

Talabnama beruvchi xalqaro talabnomani tayyorlashda amal qilishi kerak bo‘lgan asosiy me’yoriy hujjatlar quyidagilar hisoblanadi:

- avvalo, Patent kooperatsiyasi to‘g‘risida shartnoma (PST)ning o‘zi;
- muhimligi jihatidan Shartnomadan keyingi ikkinchi hujjat PSTga Yo‘riqnomalar hisoblanib, unda talabnomalarni rasmiylashtirishning aniq qoidalari belgilangan;
- talabnama beruvchi uchun muhim bo‘lgan yana bir me’yoriy hujjat PSTga ma’muriy yo‘riqnomalar hisoblanib, u talabnomani ko‘rib chiqish tartiblaridagi turli holatlarni, rasmiylashtirish bo‘yicha alohida o‘zi xos yo‘llarni, masalan, talabnomada ixtironing birligi talablariga rioya qilish shartlari va boshqalarni aniqlashtiradi.

Sanab o‘tilgan me’yoriy hujjatlardan tashqari BIMT Xalqaro byurosi muntazam ravishda 3 jildlik PST foydalanuvchisi uchun qo‘llanmani nashr qiladi, u xalqaro talabnomalarni tuzish va berish bo‘yicha mukammal yo‘riqnomalarni, barcha oluvchi idoralar, Xalqaro qidiruv organlari, Xalqaro dastlabki ekspertiza organlari to‘g‘risida axborotni, shuningdek Xalqaro talabnomaning milliy fazaga kirishida qo‘yiladigan PST a’zo mamlakatlari milliy patent idoralarining talablarini o‘z ichiga oladi.

PST a’zo mamlakatlari milliy patent idoralarining talablarini o‘z ichiga oladigan asosiy rasmiy talablarni quyidagilardan iborat.

Xalqaro talabnama arizasi uchun qo‘yiladigan talablar.

Ariza maxsus blankda va PSTga yo‘riqnomalardagi talablarga muvofiq to‘ldirilgan bo‘lishi kerak. PSTga ko‘ra har bir talabnama beruvchi ariza blankini o‘z davlatining Oluvchi idorasidan bepul olishi mumkin.

Ariza quyidagi tarzda to‘ldiriladigan alohida bandlardan iborat:

1-band Ixtironing nomi.

Ixtironing nomi aniq va qisqa, imkon qadar ingliz tili yoki ingliz tilidagi tarjimada ikkitadan yettagacha so‘z bo‘lishi kerak. Ushbu nom ixtiro tavsifining boshida ham keltirilishini lozim;

2-band. Talabnama beruvchi va **3-band.** Boshqa talabnama beruvchilar va/yoki (Boshqa) ixtirochilar.

Bu bandlarda talabnama beruvchi(lar) hamda ixtirochi(lar) (albatta, talabnama beruvchining o‘zi ixtirochi bo‘lmasa) to‘g‘risidagi aniq ma’lumotlar keltiriladi.

Bu ma’lumotlar:

yuridik shaxslar uchun to‘liq rasmiy nomi va manzili;

jismoniy shaxslar uchun bosh harflar bilan yozilgan ismi, familiyasi va uning manzilidan iborat bo‘lishi kerak.

AQSH uchun faqat ixtirochi (yoki ixtirochilar) talabnama beruvchi bo‘lishi mumkin. Shuning uchun talabnama beruvchi korxona bo‘lsa, “barcha ko‘rsatilgan mamlakatlar, AQSHdan tashqari uchinchi katakchasiga belgi qo‘yiladi. Xuddi shunday, ixtirochi uchin faqat AQSHda katakchasiga belgi qo‘yiladi;

4-band. Agent yoki umumiy vakil; yoki yozishmalar uchun manzil.

Bu yerda talabnama beruvchining patent vakili yoki agenti (agar mavjud bo‘lsa) ko‘rsatiladi. Talabnomaga barcha talabnama beruvchilar imzolagan vakil yoki agentga berilgan ishonchnomanining asl nusxasi ilova qilishi kerak.

Agar vakil yoki agent mavjud bo‘lmasa, bu bandda talabnama bo‘yicha xat yozishmalar olib boriladigan talabnama beruvchilardan biri (agar talabnama beruvchilar bir nechta bo‘lsa) ko‘rsatilishi mumkin;

5-band. Davlatlarni ko‘rsatish.

Bu bandda tegishli katakchalarda talabnama beruvchi o‘z ixtirosini muhofaza qilishni so‘rayotgan, ya’ni milliy fazasiga kiradigan davlatlarni ko‘rsatadi. Bu yerda ham milliy patentlarni, ham mintaqaviy patentlarni olish, masalan, Yevropa patenti va boshqalar ko‘rsatilishi mumkin;

6-band. Ustuvorlik uchun da’volar.

Bu yerda talabnama berilayotgan ixtironing ustuvorligi so‘ralayotgan oldingi talabnomalardagi ma’lumotlar aks ettiriladi. Agar birinchi talabnama Oluvchi idoraga berilgan bo‘lsa, tegishli katakchani belgilagach, talabnama beruvchi Oluvchi idoradan talabnomanining tasdiqlangan nusxasini tayyorlashni va o‘scha Xalqaro byuroga jo‘natishni so‘rashi mumkin;

7-band. Xalqaro qidiruv organi.

Talabnama beruvchi ushbu talabnama bo‘yicha qidiruv o‘tkaziladigan Xalqaro qidiruv organlaridan birini tanlashi kerak. O‘zbekistonlik talabnama beruvchilar xalqaro qidiruvni yoki Yevropa patent idorasi, yoki FIPS (Rossiya) orqali o‘tkazishlari mumkin;

8-band. Deklaratsiyalarning nazorat ro‘yxati.

RSTga yo‘riqnomaning talabnomada keltiriladigan ma’lumotlarning qonuniyligini tasdiqlovchi deklaratsiyalar Xalqaro talabnomaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xususan, talabnoma beruvchini talabnoma berilishining qonuniyligi to‘g‘risidagi deklaratsiya (masalan, talabnoma beruvchi ish beruvchi va uning ixtirochisi o‘rtasida huquqiy bitimning mavjudligi); talabnoma beruvchining oldingi talabnomalar bo‘yicha ustuvorlik uchun da’volarining qonuniyligi to‘g‘risidagi deklaratsiya; ixtirochi haqiqatdan ham shunday, o‘ziga xos va bиринчи (faqat AQSH uchun zarur) ekanligi to‘g‘risidagi deklaratsiya va hokazo Deklaratsiyalarning shakllarini ham Oluvchi idoradan olish mumkin;

9-band. Nazorat ro‘yxati.

Bu band talabnoma berilganda Oluvchi idora zarur hujjatlarning mavjudligi va ularning talablarga muvofiqligini tekshirishi uchun to‘ldiriladi. Ta’kidlash joizki, albatta talabnomaga to‘lanishi kerak bo‘lgan Xalqaro bojlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bojlarni hisoblash varag‘i ilova qilinadi;

10-band. Imzolar.

Bu bandda arizalar bir talabnoma beruvchi (agar ular bir nechta bo‘lsa) yoki u(lar)ning patent vakili (agenti) tomonidan imzolanadi.

Ixtiro tavsifi va formulasiga qo‘yiladigan talablar.

Bu hujjatlarni rasmiylashtirishda talabnomaga qo‘yiladigan rasmiy talablarni hisobga olish o‘ta muhimdir. Bular talabnoma dastlabki matnni skanerdan o‘tkazish yo‘li bilan nashr qilinishiga bog‘liq. Xususan, matnni A4 formatdagi oq qog‘ozga varaqning bir tomoniga bosib chiqarish kerak, bunda:yuqoridaн 2-4 sm; chap tomonдан 2,5-4 sm; o‘ng tomon va pastdan 2-3 sm hoshiya qoldirish kerak.

Varaqlarning betini arab raqamlari bilan yuqori qismiga o‘rtadan qo‘yish lozim. Har beshinchi qator (5, 10, 15...) varaqning chan hoshiyasini o‘ng tomonidan raqamlangan bo‘lishi kerak. Matn 1,5 intervalda 0,21 sm balandlikdagi katta harflar bilan bosib chiqarilishi kerak.

Qolgan holatlarda ixtiro mohiyati (tavsifi va formulasasi)ni rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar talabnomani tuzish qoidalariga o‘xshash, yani, tavsif arizada keltirilgan ixtiro nomidan boshlanadi; ixtiro taalluqli bo‘lgan texnika sohasi ko‘rsatiladi; texnikaning bundan oldingi darajasi bayon etiladi; texnik vazifa va uning yechimi, texnikaning oldingi darajasi ko‘rsatilgan holda ixtironing ijobjiy samarasi (texnik natija) ifodalanadi; chizmalarining figuralarini qisqacha tavsiflanadi; ixtirodan foydalanishning usullari (yaxshi variantlari) chizmalarini ko‘rsatgan xolda ifodalanadi; ixtiro formularsi

alohida varaqdan boshlanadi va bir yoki bir necha banddan iborat bo‘ladi. Formulaning har bir bandi tegishlicha cheklovchi va farqlovchi qismlardan tashkil topishi kerak.

Chizmalarni 26,2x17 sm maydonga joylashtirish kerak, bunda chizmalar: yuqoridan va chap tomonidan 2,5 sm; o‘ng tomonidan 1,5 sm; pastdan 1 sm qoldiriladi.

Raqam va harflarni qavs, doira va qo‘shtirnoqlar ichiga olish mumkin emas. Barcha yozuvlar shunday joylashtirilishi kerakki, tarjima qilganda ularni chizma chiziqlarini buzmasdan yopishtirish mumkin bo‘lsin, raqam va harflarning balandligi 0,32 sm dan kam bo‘lmasligi kerak. Chizmalarning alohida figuralari bet raqamidan qat’iy nazar arab raqamlari bilan raqamlanadi.

Referatga qo‘yiladigan talablar.

Referat ixtiro tavsifi, formulasi va chizmalarda ochib berilganlarning qisqacha ifodasidan iborat bo‘lishi kerak. Alohida vaziyatlarda referatda ixtironi eg yaxshi tarzda tavsiflaydigan kimyoviy formula ham mavjud bo‘lishi mumkin. Referat hajmi ingliz tilida yoki ingliz tilidagi tarjimada 50 dan 150 so‘zgacha bo‘lgani, shuningdek chizmalarning bitta figurasi ilova qilinganligi ma’qul. Umuman olganda, referat matnining hajmi chizmaning bitta figurasi bilan birga A4 formatidagi varaqdan oshmasligi kerak.

Xulosa qilib ta’kidlash joizki, Talabnama beruvchi tomonidan xalqaro talabnomaning o‘rnatilgan talablarga to‘liq muvofiq ravishda tayyorlanishi talabnama bo‘yicha ish yuritishni tezlashtiradi, binobarin ixtironi keyinchalik huquqiy himoya qilishni osonlashtiradi.